

KORRUPSIYAGA NISBATAN FALSAFIY, TARIXIY VA HUQUQIY YONDASHUVLARNING BA'ZI JIHATLARI

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada korrupsiyaga nisbatan falsafiy, tarixiy va huquqiy yondashuvlarning ba'zi jihatlari yoritilgan hamda mavzuga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiya hodisasi, korrupsiyani o'rganishning ilmiy jihati, korrupsiyani o'rganishning xalqaro-huquqiy va kriminologik jihati, korrupsiyani o'rganishning iqtisodiy jihati, korrupsiyani o'rganishning ijtimoiy jihati, korrupsion jinoyatchilik.

Abstract. In this article, some aspects of philosophical, historical and legal debates regarding corruption are highlighted, opinions and comments on the topic are expressed.

Key words: corruption, bribery, the phenomenon of corruption, the scientific aspect of the study of corruption, the international legal and criminological aspect of the study of corruption, the economic aspect of the study of corruption, the social aspect of the study of corruption, corrupt crime.

Korrupsiya to'g'risidagi ilk eslatmalar qadimgi davrning turli manbalarida mavjud bo'lib, eramizdan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida korrupsiyaga qarshi birinchi kurashuvchi Lagash davlati – Shumer shahri podshosi, hukmdor Urukagin haqida, eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan chop etilgan “Artxashastra” traktatida, shuningdek ko'plab boshqa manbalarda saqlanib qolgan. Ushbu manbalarda qayd etilishicha, hukmdor Urukagin tomonidan korrupsiyaga qarshi o'tkazilgan shafqatsiz jazolar istalgan natijaga olib kelmagan, hukmdor faqat eng og'ir jinoyatlarning oldini olishga muvaffaq bo'lgan, biroq mayda talon-torajlik, poraxo'rliklar darajasi yuqori bo'lib qolavergan [1].

Bxarat (Hindiston) vaziri tomonidan chiqarilgan xulosa juda aniq bo'lib, unga ko'ra “podsho mulki, hech bo'lmaganda, bu mulkni boshqaruvchilar tomonidan o'zlashtirilmagan holda bo'lishi mumkin emas” [2], deya ta'kidlagan. Ayniqsa, sudyalarning faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq keskin masala yuzaga kelgan, buning oqibatida masalalar huquqiy maydon tashqarisida hal etila boshlagan. Bu jihatning dolzarbligi shu qadar katta ediki, yetakchi dinlar barcha turdagi korrupsiyaning ichidan birinchi navbatda aynan sudyalarning poraxo'rligi masalasini quyidagicha qoralaydi: “sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'alar ko'zi

o'zlarni ko'ra oladigan qiladi va adolat ishini buradi” [3].

G'arb mamlakatlarida XVII asr oxirlaridan boshlab jamiyatning korrupsiyaga nisbatan munosabatida tub burilish boshlandi. Davlat hokimiyatining vazifasi xalqning turmush sharoitini yaratish va kafolatlashdan iborat, o'z navbatida, jamiyat bunday davlatni asrash majburiyatini oladi. Masalan, vaqt o'tishi bilan asta-sekin korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy normalar keskinlashib, 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasida pora olish jinoyat hisoblanib, buning uchun AQSH Prezidentiga impichment e'lon qilinishi mumkinligi mustahkamlab qo'yildi.

Keyinchalik hokimiyat orasida korrupsiya munosabatlarning yangi shakli – siyosiy elita va katta biznesning til biriktirishi, kelishuvi paydo bo'ldi. Korrupsiya munosabatlarning bu shakli XIX asrda Yevropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlarning tashkil topishi bilan uzil-kesil mustahkamlandi. Shuning uchun ham ko'plab davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish keng ko'lamli siyosiy kompaniya xususiyatiga ega bo'ldi.

Ayniqsa, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida korrupsiya xalqaro tus oldi. Mansabdor shaxslarning poraxo'rligi, ularni pora evaziga o'z tomoniga og'dirib olish holati keng tarqalmoqda. Shu davrdagi “korrupsiya tarmog'i” davlatlarning ko'pchiligini, shu jumladan rivojlangan

huquqiy tizimga ega mamlakatlarni ham qamrab oldi. Shu tariqa korrupsiya chegara bilmas hodisaga aylanib ulgurdi. Endilikda ushbu salbiy hodisaga nisbatan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, balki ushbu hodisani ilmiy jihatdan o'rganish kabi vazifalar turgan edi.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasi turli fanlar hamda yondashuvlar, ilmiy maktablar, oqimlar va ilmiy tafakkurlar yo'nalishi doirasida o'rganiladi. Natijada korrupsiyani ilmiy jihatdan ko'rib chiqish jihati uning sabablari va mohiyati nuqtayi nazariga bog'liq bo'lib, bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirilgan qator ilmiy tadqiqotlarni misol qilib keltirish mumkin:

Birinchidan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida korrupsiya hodisasi Q.R.Abdurasulova [4], B.Ismailov [5], R.T.Hakimov [6], Sh.R.Qobilov [7], Sh.O.Mamadaliyev [8], A.O'Imasov [9], Q.Tojiboyev [10], M.Xodjimuxamedov [11] va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida xalqaro huquq va kriminologiya fani nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

Ikkinchidan, rossiyalik G.A. Avanesov, D.I.Aminov, B.V. Voljenkin, L.D. Gauxman, V.V.Golubev, A.I.Dolgova va boshqalar tomonidan yoritilgan ilmiy maqola, dissertatsiya, monografiya va darsliklarda ushbu hodisaga huquqiy va kriminologik nuqtai nazardan yondashilgan.

Uchinchidan, korrupsiyani iqtisodiy nuqtayi nazaridan o'rganish keng tarqalgan bo'lib, bu joyda korrupsiya bozor raqobatini cheklashi, mahsulot sifatining pasayishi va tannarxining oshishi hamda resurslarning notekis taqsimlanishiga olib kelishi qator iqtisodchi olimlar, jumladan S.Rouz-Akkermanning "Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы" va "Демократия и «великая» коррупция", R.Klitgaardning "Controlling corruption", J.Buchininning "The economics of Corruption", V.E.Boykovning «Серая» экономика: масштабы развития и влияния на массовое сознание", I.M.Klyashin va L.M.Timofeevning "Теневая экономика: экономико-социологическое исследование", S.P.Yuxachevning "Коррупция как экономические отношения социума" va boshqalarning tadqiqot ishlarida ilmiy asosda isbotlangan.

To'rtinchidan, korrupsiya holatlarining ommalashishi nuqtayi nazaridan olib borilgan tadqiqotlarda asosiy o'rinni korrupsiyaning

omma ongida o'zlashtirilishi, mamlakat aholisining korrupsiyani idrok etishini o'rganishga qaratilgan turli empirik, sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlarini umumlashtiruvchi ilmiy ishlar muhim o'rin egallaydi. Bunga misol sifatida siyosiy sohadagi korrupsiyani keltirish mumkin. Siyosiy sohadagi korrupsiya siyosiy elitaga nisbatan omma ishonchining yo'qotilishi, siyosatchilarning muayyan guruhlar hukmronligini ta'minlash maqsadlarini o'zgartirishi, demokratiya qadriyatlarida umidsizlikka sabab bo'lishi, shuningdek, davlat qurilishining yanada qattiqroq shakliga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi fikrlarni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rish mumkin.

Beshinchidan, ma'lumki, ijtimoiy sohada korrupsiyaning namoyon bo'lishi qonunlar ta'sirchanligini sezilarli darajada pasaytiradi (qonunlar ishlamay qolishiga sababchi bo'ladi), shuningdek, aholining hokimiyat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi, ijtimoiy manfaatlarini tor guruhlar foydasiga qayta taqsimlab, aholining ijtimoiy farqlanishi, ya'ni tabaqalanishi darajasining oshishiga olib keladi.

Oltinchidan, korrupsiya hodisasini o'rganishda jinoyat huquqi va kriminologiya sohasidagi mutaxassis olimlarning ilmiy ishlari asosiy qismni tashkil etadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, shuningdek, ushbu hodisaning ko'p qirraliligini e'tiborga olib, korrupsiya muammolarini falsafiy-tarixiy, sotsiologik va huquqiy tahlil yordamida ko'rib chiqish ushbu muammoni nisbatan to'liq qamrab olishga imkon beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Korrupsiya hodisasini anglab olish maqsadida uni yanada chuqurroq tahlil qilish uchun "korrupsiya" atamasining keng va tor ma'nolarini ajratish lozim. Bunday yondashuv korrupsiyaning mohiyatini keng ma'noda tushuniladigan, anglab olinadigan falsafiy hodisa va bevosita jamiyat va davlat o'rtasidagi norasmiy munosabatlar rivojlanishining tarixiy-huquqiy hodisasi sifatida aniqlash imkonini beradi.

Korrupsiya keng ma'noda har qanday davlatning rivojlanishi va uning aksi, ya'ni tanazzulining qonuniy bosqichini, tor ma'noda – barqaror, kompleks, yashirin va noqonuniy rivojlanayotgan huquqqa zid tizimni o'zida ifodalaydi.

Shunday qilib, korrupsiyani tavsiflovchi quyidagi qator belgilarni ajratish mumkin:

1) barqarorlik – umumiy manfaatlarga (boyish, “himoya qilish”, resurslarni tasarruf etish kuchiga ega hokimiyatga) asoslangan, korrupsion o‘zaro munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasida doimiy qayta takrorlanadigan norasmiy munosabat;

2) komplekslilik – norasmiy munosabatlar ishtirokchilari (jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, mansabdor shaxslar, shuningdek, davlat xizmatchilari)ning iyerarxiyaga asoslangan yashirin korrupsiyaviy tizimi;

3) yashirinlik – pora beruvchi va pora oluvchi o‘rtasidagi yashirin, norasmiy munosabatlar;

4) noqonuniy va huquqqa zid jadal rivojlanish – korrupsiyaning ichki va tashqi huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar (qonunlarning ijro etilishi, qonunga itoat qiluvchi fuqarolarni tarbiyalash instituti, qulay iqtisodiy va ijtimoiy muhit, siyosiy iroda, “ma’muriy to‘siq”ning yo‘qligi)ga qarab rivojlanish qobiliyati.

Korrupsiyaning falsafiy va tarixiy tahlili ushbu muammoni tushunib olish nafaqat uning izohi turlicha talqinga egaligi, balki ba’zi holatlarda ushbu tushunchaning ko‘pqirraligi bilan ham bog‘liqligi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

So‘nggi paytlarda ilmiy adabiyotlarda (masalan, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar va boshqalarda) fanlararo tadqiqotlar sonining sezilarli darajada o‘sishi kuzatilmoqda.

Biroq, boshqa jihatdan, tadqiqotchilar tomonidan korrupsiyani sohasiy jabhadan chuqurroq o‘rganish kuzatilmoqda, korrupsiyani ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq etishning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarning yutuqlarini hisobga olgan holda ushbu tushunchaning “tasniflanishi”da o‘ziga xoslik ro‘y bermoqda. Shu o‘rinda korrupsiya bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga nisbatan amaliy yondashuvning ustunligi kuzatilmoqda.

Falsafiy, tarixiy va huquqiy yondashuvlarning sintezi korrupsiya jarayonlarining ko‘rinishi va oqibatlari, takror ishlab chiqarish usullari, elementlari, mohiyati, omillarini kompleks ko‘rib chiqish imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda alohida qadriyat va ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda hozirgi kunda fanda korrupsiyani ilmiy jihatdan o‘rganish borasida muhim qadam qo‘yilmoqda. Bugungi kunda jinoyat

oqibatlari bilan kurashishni emas, balki jinoyatchilikning asl tendensiyalari hamda omillarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish orqali uning barvaqt oldini olishni ustuvor maqsadga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, respublikada kuzatila-yotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnoz qilish, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etilishiga yo‘naltirish mexanizmlarini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga kelgan” [12]ligini e‘tiborga olgan holda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi, “Huquqbuzqirliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini tashkil etish, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish bo‘yicha faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda jinoyatlarning omillarini o‘z vaqtida bartaraf etish orqali ularni barvaqt oldini olish tizimi natijadorligini oshirish maqsadida 2024-yil 15-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [13] PF-10-son farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi.

Mazkur Farmonga muvofiq quyidagilar Kriminologiya tadqiqot instituti faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

respublikadagi kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, ma‘naviy-ma‘rifiy, huquqiy, tibbiy va tashkiliy omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash;

hududlar kesimida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish choralari samaradorligini ilmiy jihatdan baholash, shuningdek, ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalariga asoslangan holda, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish orqali jinoyatchilik omillarini bartaraf etish choralari ishlab chiqish;

ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali kriminologik faoliyat amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks yechimlarni ishlab chiqish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni tashkil etish;

jamoatchilik o'rtasida shov-shuvga sabab bo'lgan jinoyatlarning omillarini aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqishda belgilangan tartibda mutaxassis sifatida surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko'maklashish;

jahon kriminologiyasi va xorijiy davlatlar kriminologik faoliyat to'g'risidagi qonunchiligi-ning ilg'or tajribalarini doimiy o'rganish hamda uning natijalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitlarida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

kriminologiya sohasi bo'yicha mustaqil izlanuvchilik shaklida oliy malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, talabgorlarni belgilangan tartibda ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarga taqdim etish [14].

Bunday milliy huquqiy fikr, birinchidan, korrupsiya kabi illatning jahon miqyosida tobora o'sib borayotganligi, ikkinchidan, korrupsiyaning oddiy poraxo'rlikdan farq qilinishi nuqtayi nazaridan mumkin bo'ldi. Qonunchilikda qo'llaniladigan "hokimiyat yoki mansab vako-latini suiiste'mol qilish", "hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish", "mansabga sovuqqonlik bilan qarash", "hokimiyat harakatsizligi", "mansab soxtakorligi", "pora berish", "pora olish", "pora olish-berishda vositachilik qilish", "xizmatchini pora evaziga og'dirish" [15] va hokazo kabi odatiy vositalar bilan birga ko'pchilik olimlar va amaliyotchilar ushbu hodisaning mohiyatini tushunib, bilib olish yo'lidan bormoqdalar va uni o'rganish metodologiyasida yagona yondashuvdan foydalanmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 2017-yil 3-yanvardagi qonunida "korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"[16] deb ta'rif berildi va natijada korrupsiyaning yagona ta'rifi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda aksariyat tadqiqotchilar korrupsiyani asosli ravishda nafaqat huquqiy,

kriminologik, balki sotsial-ijtimoiy hamda siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tushuncha sifatida ko'rib chiqmoqdalar.

Korrupsiya – bu tizim. Korrupsiya, uning ko'lami haqida aniq va ishonchli tasavvurga ega bo'lmagan odamlar, shubhasiz, iqtisodiy xarakterdagi sabablarga e'tibor qaratadilar. Ular poraxo'rlikning odatdagi tushunchasiga korrupsiyani ham qo'shgan holda, korrupsiyaning sababi shifokorlar, o'qituvchilar, huquq-tartibot xodimlari, mansabdor shaxslarning mablag'i yetishmasligi, deb hisoblaydilar. Lekin bu bilan bog'liq holatda faqat poraxo'rlik haqida gapirishimiz mumkin. Korrupsiya – bu boshqa tushuncha bo'lib, o'zida jiddiyroq xavfni ifodalaydi.

Biroq, poraxo'rlik va korrupsiyani bog'laydigan umumiy jihatlar bor. Ular nomoddiy tavsifga ega bo'lib, ushbu hodisalarning sabablariga yashiringan. Agar davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli bo'lgan davlat xizmatchilari va boshqa shaxslar o'z xizmat mavqeidan, maqomidan va egallagan lavozimi obro'sidan shaxsiy boylik orttirish yoki guruh manfaatlarida g'araz maqsadlarda foydalanadigan bo'lsa, unda korrupsiya hokimiyat tanazzuliga ega bo'ladi.

Korrupsiyaning ijtimoiy xavfi juda yuqori. Xalqaro hujjatlarda korrupsiya iqtisodiyotga o'ta zararli ta'sir ko'rsatishi, barcha turdagi hukumat qarorlari va dasturlari samaradorligiga putur yetkazishi, jamiyatda o'rnatilgan axloq normalariga zarar yetkazishi, fuqarolarning hukumatga, hokimiyat obro'siga bo'lgan ishonchini susaytirishi, adolat prinsipini buzishi va xolis odil sudlov amalga oshirilishini barbad qilishi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, korrupsion jinoyatchilik – bu boshqaruvga rasman jalb qilingan shaxslar (davlat funksiyalarni bajarishga vakolat berilgan, davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari va boshqa shaxslar) tomonidan ularning o'z huquqiy holati bo'yicha imkoniyatlaridan foydalangan holda noqonuniy shaxsiy manfaat topish uchun sodir qilingan jinoyatdir.

Turli kriminologik ma'lumotlar yangi tuzilayotgan tashkilotlar nizomlarini va boshqa ta'sis hujjatlarini ro'yxatga olish, tegishli faoliyatni litsenziyalash, bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish, kredit olish va hokazolar keng tarqalgan "byurokratik reket"dan dalolat beradi.

Korrupsiya jinoyati bunday jinoyatlarning subyektlari, sodir etilishi usullari va sohalari bilan bog'liq bir qator kriminologik xususiyatlarga ega. Korrupsiya jinoyatining subyektlari ijtimoiy jihatdan yuqori mavqega ega bo'lgan shaxslar bo'lgani sababli, uni hokimiyat-elita jinoyati sifatida tavsiflash mumkin. Ushbu jinoyatdan xususiylashtirish, moliyalashtirish, kreditlash, bank operatsiyalari, tijorat tashkilotlarini tuzish va ro'yxatga olish, litsenziyalash va kvotalar, tashqi iqtisodiy faoliyat, mablag'larni taqsimlash, yer islohotini amalga oshirish va hal qilish bilan bog'liq davlat tuzilmalari eng ko'p zarar ko'rgan.

Korrupsiyaning xarakterli xususiyati uning eng yuqori darajadagi latentligi – yashirinligi hisoblanadi. Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, poraxo'rlik aniqlangan holatlarining darajasi ularning haqiqiy holatiga nisbatan 0,1 dan 2 foizigacha to'g'ri keladi, xolos.

Korrupsion jinoyatlarning yuqori darajadagi latentligi obyektiv va subyektiv tavsifdagi omillar bilan izohlanadi. Ko'plab holatda bunday jinoyatlarni hal etishdan manfaatdor bo'lgan jismoniy ma'nodagi jabrlanuvchilar deyarli bo'lmaydi. Buning sababi, qoida tariqasida, (pora olish va pora berishda) barcha ishtirokchilar qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Shuning uchun korrupsion jinoyatlar yashirin, ko'pincha davlat faoliyatining o'ziga xos va maxfiy turlarida sodir etiladi.

Latentlikning subyektiv sabablariga korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari rahbarlari o'rtasida lozim darajada siyosiy iroda va qat'iyatning yo'qligi, shuningdek, ushbu faoliyatni tergov qilishda ishtirok etadigan tezkor vakillar va tergov xodimlarining kasbiy mahorati darajasining qoniqarsizligi kabilar kiradi.

Masalan, Ya.I. Bogdanovning ta'kidlashicha, 2000-yillarga kelib Rossiyada korrupsiya va poraxo'rlik muammosi shu qadar tahlikali ravishda keskinlashib ketdiki, hamma narsa sotiladi va sotib olinadi: maktablardagi baholardan tortib, davlat Dumasida qonun qabul qilishgacha. Shu bilan birga, olim va mutaxassislarning ma'lumotlariga ko'ra, poraxo'rlik holatlarining ancha qismi (90%) hal etilmay qolmoqda[17].

Shuningdek, korrupsiya va poraxo'rlik hamda jinoiy uyushmalar o'rtasida shubhasiz o'zaro aloqalar mavjud, chunki hech bir jinoiy uyushma o'z maqsadlariga erishish uchun turli darajadagi

mansabdor shaxslarni korrupsiyalashtirmasdan turib yashay olmaydi. Agar oddiy jinoyatchilik jamiyat institutlariga qarshi tursa, uyushgan jinoyatchilik ushbu qarama-qarshilikda davlat va jamiyat institutlariga tayanishga, ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qiladi.

Jamiyatda imtiyozli kreditlarni noqonuniy ajratish, olish va ulardan foydalanish, kapitalni xufiya iqtisodiyotiga va chet el banklariga o'tkazish, jinoiy yo'l bilan olingan pulni "yuvib ketish" kabi faktlar keng tarqaldi. Ushbu harakatlar muqarrar mansabdor shaxslarning qasddan o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda katta miqdorda pora olish bilan turli jinoyatlarni sodir qilgan holatlari bilan birgalikda kuzatiladi.

Korrupsiya mavzusining nazariy ahamiyatiga kelganda, ushbu muammoga oid turli qarashlar (manbalar)ni, ularning qiyosiy tavsifini aks ettirish, jamiyatning korrupsiyalashganlik holati va uning darajasini, huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Korrupsiya mavzusining obyekti korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash muammosi bo'lsa, uning predmeti – korrupsiya munosabatlarining paydo bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, ularning mohiyati, tuzilishi, asosiy elementlari va tamoyillari hisoblanadi.

Korrupsiya mavzusi bo'yicha olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlarini, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlarni, konferensiya materiallarini o'rganib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: ko'plab odamlar korrupsiya muammosi bilan qiziqmoqdalar, uni bartaraf etish bo'yicha o'zlarining choralari taklif qilmoqdalar, bunda ular umumiy gaplardan emas, balki aniq faktlardan foydalanmoqdalar.

Ushbu mavzuning maqsadi korrupsiya va poraxo'rlikka oid qonunchilikdagi mavjud kamchilik va nuqsonlarni aniqlashdan iborat bo'lishi kerak.

Korrupsiya qonun ustuvorligi, demokratiya va inson huquqlariga jiddiy tahdid bo'lib, hokimiyatga bo'lgan ishonchga, davlat boshqaruvi prinsiplariga, tenglik va ijtimoiy adolatga putur yetkazadi, raqobatga, iqtisodiy rivojlantirishga to'sqinlik qiladi va demokratik institutlar barqarorligi va jamiyatning axloqiy negizlariga tahdid soladi.

Buni quyidagi raqamlardan ham ko'rish

mumkin, masalan, “2021-yilda O‘zbekistonda korrupsiya yo‘nalishidagi jinoyatlardan davlat va jamiyat manfaatlariga 1 trln. 282 mlrd. so‘m (118 mln. AQSH dollari) miqdorida zarar yetkazildi. Shundan faqat 887 milliard so‘m yoki zararining 69.1 foizi undirilgan, xolos.

2021-yilda sudlarga 5483 shaxsga nisbatan 3769 ta korrupsiya to‘g‘risidagi jinoyat ishi yuborilgan. Buni 2020-yilga nisbatan taqqoslaganda 2621 taga ko‘paygan, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni esa 3760 taga yoki 218 foizga oshgan.

2020-yilda korrupsiya jinoyatlari sodir etilishi oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 500 mlrd. 102 mln. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan bo‘lib, shundan 355 mlrd. so‘m yoki 71,0 foizi undirilgan.

Bundan tashqari, 2021-yilda Korrupsiyaga qarshi agentlik tomonidan davlat xaridi bo‘yicha qurilish sohasida umumiy summasi 461.3 mlrd. so‘mlik 59 ta obyektda tekshiruvlar o‘tkazgan. Tekshiruvlarda korrupsiya holati bo‘yicha aniqlangan faktlar yuzasidan to‘plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilganligi natijasida 49 ta jinoyat ishi va 24 ta ma‘muriy ish qo‘zg‘atilgan”[18].

Xuddi shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog‘liq 1676 ta jinoyat ishi tergov qilinib, sudlarga yuborilgan. Sud yakunlariga ko‘ra, korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo‘yicha 592,5 mlrd. so‘m moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so‘mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so‘mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan[19]. Korrupsiya jinoyati bilan bog‘liq bunday holatlarni ko‘plab keltirish mumkin.

Ushbu mavzuga xulosa sifatida Isroilning sobiq bosh vaziri Golda Meirning quyidagi so‘zlarini keltirish mumkin:

“Agarda siz o‘g‘illari va qizlari qaytib keladigan mamlakatni qurmoqchi bo‘lsangiz, agarda ular faqat dam olish mavsumidagina tark etadigan mamlakatni qurmoqchi bo‘lsangiz, agarda kelajak uchun qo‘rquv hissi bo‘lmagan mamlakatni qurmoqchi bo‘lsangiz, unda uchta tadbirni bajaring:

1. Korrupsiyani Vatanga xiyonat, poraxo‘r amaldorlarni va ularning yetti avlodigacha xoinlarga tenglashtiring.

2. Uch kasbni, ya‘ni harbiylar, o‘qituvchilar va shifokorlikni eng yuqori haq to‘lanadigan va hurmat qilinadigan kasbga aylantiring.

3. Eng muhimi – mehnat, mehnat va yana mehnat, sizni o‘zingizdan boshqa hech kim himoya qilmaydi, sizni o‘zingizdan boshqa hech kim boqmaydi va sizning mamlakatingiz faqat o‘zingizga kerak, boshqa hech kimga kerak bo‘lmaydi. Qachonki, bular faqat so‘zlarga va oddiy shiorga emas, balki sizning hayot tarzingizga aylansa, demak siz o‘z maqsadingizga erishdingiz ...”.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish va tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. “Korrupsiya” tushunchasi va uning zamonaviy dunyodagi ijtimoiy ahamiyatini umumiy jihatdan o‘rganish.

2. Korrupsiya va poraxo‘rlik tarixiy genezisi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

3. Poraxo‘rlik jinoyatini boshqa turdosh jinoyat tarkiblaridan farqlash mezonlarini tahlil qilish.

4. Poraxo‘rlikning sotsiologik tavsifi bo‘yicha zamonaviy metodlardan foydalangan holda ijtimoiy elita bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazish.

5. Ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish usullari va mexanizmlari bo‘yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot olib borish.

6. O‘zbekistonda korrupsiyaga sabab bo‘layotgan muammolarni, korrupsion jinoyatlar va ularning sabab hamda shart-sharoitlarni o‘rganish.

7. O‘zbekiston va xorijdagi korrupsiyaga oid statistik ma‘lumotlarni yaxlit shaklda tizimlashtirish.

8. Ijro hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarining korrupsiogenizisini xalqaro standartlar asosida ilmiy tahlil qilish.



Foydalanilgan manbalar

1. Крамер С.Н. История начинается в Шумере. – М.: Наука, 1965. – 257 с.
2. Кальянов В. И. Артахаштра или наука политики. Перевод санскрита. – Москва: Научно-издательский центр “ЛАДОМИР”, 1993. – 299 с.
3. Тимофеев Л.М. Институциональная коррупция: Очерки теории. – М.: 2000. – С. 10–17.
4. Abdurasulova Q.R. Korruptsiyaga qarshi kurash // Hayot va qonun, 2003. – № 3. – 17-b.
- Исмаилов Б. Борьба с коррупцией – задача глобального масштаба // Yangi qonunlar mohiyati. Ilmiy amaliy qo'llanma. – T.: Ilm ziyo, 2009. – B. 398-403.
5. Хакимов Р.Т. Коррупция – глобальная проблема. – Т.: Falsafa va huquq, 2006. – 252 b.
6. Qobilov Sh.R. Korruptsiya: sabablari, shart-sharoitlari, oqibatlar va oldini olish yo'llari. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 368 b.
7. Mamadaliyev Sh.O. Korruptsiyaga qarshi kurashning nazariy masalalari // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi, 2018. Maxsus son. – 65–75-b.
8. O'Imasov A. Korruptsiya: ko'rinishi, shakllari va turlari // Postda. – 2016. 9-may.
9. Tojiboyev Q. Mansab mavqeini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik. – T., 2016. – 13-b.
10. Ходжимухамедов М. Борьба против коррупции в зеркале общественного мнения // Korruptsiyaga qarshi kurashish – jamiyat va davlat xavfsizligining garovi: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2015-yil 26-noyabr). – T., 2016. – 31-34-b.
11. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2024-yil 16-yanvar.
12. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2024-yil 16-yanvar.
13. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2024-yil 16-yanvar.
14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2001. – B. 110-116.
15. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 19.11.2021-y., 03/21/729/1064-son; 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son; 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son.
16. Богданов И.Я., Калинин А.П. Коррупция в России: социально-экономические и правовые аспекты. – М., 2001. – С. 7–9.
17. <https://kun.uz/ru/news/2022/03/11/v-2021-godu-v-rezultate-korrupsionnyx-prestupleniy-uzbekistan-poteryal-boleye-110-millionov-dollarov>.
18. <https://strategy.uz/index.php?news=1397>.

